

CHO'LPONNING HAYOTI VA IJODI-"MA'RIFATPARVARLIK RUHIDAGI ADABIY IZLANISHLAR.

Ashurova Oftobxon Xoshimovna

Farg'ona shahar 1-sonli politexnikumi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo'li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimini oshirgan. Cho'lpon — shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi.

Kalit so'z: Taxallus, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi.

Cho'lpon (taxallusi; asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov) (1897, [Andijon](#) — 1938.4.10, [Toshkent](#)) — [shoir](#), [yozuvchi](#), [dramaturg](#), [tarjimon](#), tanqidchi va jamoat arbobi. Dastlab madrasada (1908-1912), so'ngra rus-tuzem maktabida (1912-1914) o'qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo'li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimini oshirgan.

[Fevral inqilobining](#) ro'y berishi taraqqiyparvar ziyolilar dunyoqarashini o'zgartirib yubordi. Ular, shu jumladan, Cho'lpon mustaqillik uchun kurash endi targ'ibiy-tashviqiy davridan amaliy faoliyat bosqichiga o'tganini angladilar. Cho'lpon [Turkiston muxtoriyati](#) hukumatining barpo etilishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni sharafllovchi „[Ozod turk bayrami](#)“ she'rini yozdi va bu she'r o'zbek davlatchiligi tarixida ilk [madhiya](#) bo'ldi. Shu davrda Turkistondagi ko'p millatli ziyolilar o'rtasida [federalizm](#) g'oyasi keng tarqalgani sababli Cho'lpon ayni paytda Z.Validiy bilan birga [Orenburgga](#) borib, Boshqirdiston muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida ham ishtirok etdi. Federalistlarning fikrlariga ko'ra, Turkiston va [Volga bo'yidagi turkiy xalqlar](#) o'z muxtoriyat hukumatlarini barpo etganlaridagina

bu xukumatlarning [bolsheviklar](#) tomonidan tan olinishi va birgalikda himoyalaniishi mumkin edi.

Muxtoriyat tugatilgach, Cho‘lpon [„Ilmiy kengash“](#), [„Chig‘atoy gurungi“](#), [„Nashri maorif“](#) tashkilotlari va [„Turon“ teatrida](#) adabiy, ilmiy-ma‘rifiy ishlar bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ayni paytda [sho‘ro davlatining](#) mustamlakachilik siyosati oqibatlarini fosh etuvchi she‘r va maqolalar yozish bilan istiqlool uchun kurashda davom etdi. Ammo respublika madaniyat xodimlarining 2-qurultoyi 1927-yildan keyin Cho‘lponga qarshi boshlangan kurash uni siyosiy faoliyatdan uzoqlashishga, hatto 1931-1935-yillarda Moskvaga qochib borib, musofirlikda yashashga majbur etdi. Jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya Cho‘lponni ham chetlab o‘tmaydi. Ta‘qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg‘in ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. 30-yillarning boshida yana [Moskvaga](#) ketgan va Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo‘lib ishlagan. Cho‘lpon 1937-yil 14-iyulda qamoqqa olinadi va 1938-yil 4-oktyabrda [Toshkentda](#) Bo‘zsuv bo‘yida qatl etiladi.

Agar Cho‘lponning „ko‘ngil lirikasi“ an‘analari keyinchalik [Oybek](#), [Hamid Olimjon](#), [Mirtemir](#), [Zulfiya](#), [Erkin Vohidov](#), [Abdulla Oripov](#), [Rauf Parfi](#) va boshqalar ijodida muvaffaqiyat bilan rivojlantirilgan bo‘lsa, uning ijtimoiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan she‘riyati an‘analari keyinchalik davom ettirilmay qoldi.

Cho‘lpon iste‘dodiga xos lirik nazokat va nafosat shoir nasriy asarlarining ham o‘ziga xosligini belgilab keladi. Cho‘lpon qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali mujassamlantirishga erishdi. Shu ma‘noda uning 20-yillarda yozgan [„Oydin kechalarda“](#), [„Qor qo‘ynida lola“](#), [„Novvoy qiz“](#) singari hikoyalari o‘zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalari. Cho‘lpon bu hikoyalarida o‘zbek xotinqizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy rejada tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g‘oyani bu asarlar osha „qizil ip“ yanglig‘ o‘tkazgan. Umuman, o‘zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri

tasviri Cho'lpon she'riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, „[Kecha va kunduz](#)“ (1936) romanining ham asosiy g'oyaviy yo'nalishini belgilab bergan.

Abdulhamid Cho'lpon adabiy merosining ma'lum qismini nasriy asarlar tashkil etadi. O'z davri adabiy hayotida shoir sifatida tanilgan Cho'lpon she'rlar bilan birga «Qurvoni ja-holat», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz», «Oydin kecha-larda» kabi hikoyalar yozadi. 30-yillarda «Kecha va kunduz» romani ustida jiddiy ishlaydi. Adib bu asarni, nomidan ma'lum bo'lganidek, ikki qismli qilib yozishni rejalashtiradi. 1936-yil romanning birinchi qismi alohida kitob shaklida bosilib chiqdi. Ikkinchi qismining taqdiri noma'lumligicha qoldi. Adib qatag'onidan keyin uning boshqa ijod namunalari kabi ushbu romanni ham uzoq yillar o'quvchilar nazaridan berkitildi; uni o'qish taqiqlandi. Oradan yarim asr o'tgach, kitobxonlar e'tiboriga qayta taqdim etildi. Mustaqillik yillarida esa roman adabiyotshunos olimlar tomonidan jiddiy o'rganildi.

«Kecha va kunduz» romani Cho'lpon ijodiy biografiyasida ham, o'zbek romanchiligi tarixida ham alohida o'rin tutadi. Chunki bu asarda Cho'lponning hayotda orttirgan bilim va tajribalari, she'riyat va dramaturgiya sohasida erishgan badiiy mahorati jamlandi. Shuning uchun romanni o'qiganda uni shoirona ko'ngil egasi yozgani, ko'p o'rinlarda yozuvchining lirik kayfiyati yaqqol sezilib turadi.

Cho'lpon XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy muhiti, xususan, chorizmning bosqinchilik siyosatining ichdan yemi-rilib borayotgani, mahalliy amaldorlarning razil qilmishlarini real aks ettiradi. Muallif millatparvar adib sifatida o'zbek xalqining turmushida boshlangan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni, yuragini o'rtagan hayotiy muammolarni zo'r mahorat bilan bayon etadi. Asar boshidagi oddiy bir oilaning ma'naviy muhit tasviri bora-bora romanning badiiy matni mohiyatiga negizida o'zlik va dunyoni anglash, ma'rifat va hurlik kabi millat taqdiriga bog'liq haqiqatlar bilan uyg'unlashib ketadi. Nasriy asarlarda ijodkorning tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga nisbatan nuqtayi nazari muhim sanaladi. Bu jihat muallifning bosh badiiy g'oyasi uchun xizmat qila digan obrazlar tizimida, yaqin tarixdagi ijtimoiy tuzumga tegishli masalalarning badiiy muhokama qilinishida ko'rinadi. Shunga ko'ra

romanni to'liq o'qigan o'quvchi e'tiborga mo-lik bir qancha o'ziga xos badiiy qahramonlarni juda yaxshi eslab qoladi. Ularning muomala-munosabatlari, oralaridagi ziddiyatlar, davr voqeligini baholashlari juda ishonarli badiiy talqin etiladi. Xususan, romandagi Akbarali mingboshining o'z baloyi nafsiga o'ralashib, aysh-u ishratga berilishi, Miryoqub epaqaning ijtimoiy-ma'naviy tarafdin dinamik o'sa boshlash jarayoni ko'rsatiladi. Oxir-oqibat beg'ubor bir qiz Zebining ayanchli qismati kitobxon qalbini larzaga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Vohidov A. Cho'lpon: hayoti, ijodi va adabiy qarashlari. – Toshkent: Fan, 1989.

Karimov M. O'zbek adabiyoti tarixi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

G'ulomov A. Cho'lponning badiiy mahorati. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.

Qodirova N. Millat uyg'onishi va Cho'lpon fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, 2018.